

## "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash USLUBIYOTI

Mazkur Uslubiyot "O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyatining (*kelgusida o'rinnarda - Jamiyat deb yuritiladi*) faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibini belgilaydi.

### 1-bob. Umumiy qoidalar.

1. Jamiyatning faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning maqsadlari quyidagilardan iborat:

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarga eng ko'p duch keladigan vazifa va funksiyalarini aniqlash hamda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini shakllantirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash quyidagilar ishlab chiqilishini nazarda tutadi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dastur;

korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati;

korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri.

3. Ushbu Uslubiyotda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**korrupsiyaviy xavf-xatar** – davlat xizmatchisining o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda mavjud sabab va sharoitlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi** - Jamiyat faoliyatida amalga oshiriladigan vazifa va funksiyalar (jarayonlar) bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaviy xavf-xatarning tavsifi va darajasi, funksiyalarni (jarayonlarni) tartibga soluvchi mexanizmlar, funksiyalarni (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choralar, qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi, korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish choralarini amalga oshirishga mas'ul ijrochilarni o'z ichiga olgan hujjat;

**korrupsiyaga oid huquqbazarlik** - korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash** - Jamiyatning faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tahlil qilish, mavjud korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ushbu xavf-xatarlar darajasini baholash bo'yicha faoliyat;

**qoldiq xavf-xatar** - aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarni bartaraf etish

yuzasidan belgilangan choradan keyin saqlanib qoladigan xavf-xatar;

**maxsus bo‘linma** – Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi;

**ishchi guruh** – Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uchun tuziladigan xodimlar tarkibi.

4. Jamiyat tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali har yili 1-martga qadar amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan (*bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi*) Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish borasidagi faoliyatini takomillashtirish, ushbu yo‘nalishda kamchiliklarning oldini olish bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi mumkin.

## **2-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashni tashkil etish.**

6. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Jamiyat markaziy apparatining barcha boshqarma va bo‘limlarini qamrab olishi lozim.

Bunda, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash maxsus bo‘linma yoki Ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

7. Ishchi guruh a’zolari Jamiyatning boshqarma va bo‘limlari mas’ul xodimlaridan iborat tarkibda tashkil etiladi.

Boshqaruv raisi tomonidan buyruq bilan Ishchi guruh tarkibi tasdiqlanadi hamda uning faoliyati muvofiqlashtiriladi.

8. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashda Jamiyatning Ishchi guruh tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini ishlab chiqish;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalari ko‘rib chiqish va ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish;

Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihasini takomillashtirish.

9. Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dastur loyihalari ko‘rib chiqish;

-“E-Anticor.uz” elektron platformasiga korrupsiyaviy xavf-xatarlarni va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini joylashtirish.

## **3-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tartibi.**

10. Ishchi guruh tomonidan Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) tavsifi ushbu Uslubiyotning 1-ilovasiga muvofiq shaklda tuziladi.

11. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalardagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlar ichki va tashqi axborot manbalari asosida aniqlanadi.

12. Ichki axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) huquqiy asosi; ichki tekshiruv materiallari, shu jumladan xizmat tekshiruvi materiallari; Axloq komissiyasi majlislarining yig‘ilish bayonnomalari; korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining monitoring natijalari;

Ishchi guruh tomonidan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari va boshqalar.

13. Tashqi axborot manbalari quyidagilardan iborat:

Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi murojaatlар, OAVdagi xabarlar va statistik ma’lumotlar;

Agentlik yoki boshqa davlat tashkilotlari tomonidan davlat tashkiloti faoliyati (vazifa va funksiyalari) yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomalari, shu jumladan sotsiologik tadqiqotlar natijalari;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan taqdim etilgan materiallar va boshqalar.

14. Ishchi guruh Jamiyatning faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlashda quyidagi holatlar tahlil qilinishi lozim:

Jamiyatning xodimi tomonidan sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik;

Jamiyat tomonidan faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) amalga oshirishda jismoniy va yuridik shaxslar uchun sun’iy to‘siqlarning mavjudligi;

o‘z vaqtida qaror qabul qilmaslik, asossiz tezkor tartibda qaror qabul qilish;

hujjatlar, elektron ma’lumotlar bazalariga bila turib yolg‘on ma’lumotlarning kiritilishi;

xizmat vakolatlarini amalga oshirishda manfaatlar to‘qnashuvi;

vakolatlarni amalga oshirishda mahalliychilik, homiylik, urug‘-aymoqchilik kabi holatlarning mavjudligi.

15. Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi quyidagi o‘lchovlarda baholanadi:

Past;

O‘rta;

Yuqori.

16. Ishchi guruh tomonidan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, “E-Anticor.uz” elektron platformasidagi chek-listni to‘ldirish orqali ma’lum bir vazifa va funksiyalaridagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi avtomatik belgilandi.

#### **4-bob. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasini bartaraf etish choraları.**

17. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish choraları quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish;

inson omilini qisqartirish va davlat tashkiloti faoliyatini (vazifa va

funksiyalarini) raqamlashtirish, shaffoflikni ta'minlash, jamoatchilik nazoratini yo'lgan qo'yish;

Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyalarini) tartibga solish choralarini ko'rish;

Jamiyat xodimlari va jismoniy shaxslar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani maksimal darajada cheklash;

rasmiy veb-sayt va boshqa ommaviy axborot vositalarida Jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish va tarqatish;

davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonini soddalashtirish, asossiz cheklovlarini, ortiqcha ma'muriy tartib-taomillarni bekor qilish, byurokratik tartibga solish mexanizmlarini yo'q qilish, taqdim etilgan hujjatlar soni va qaror qabul qilish muddatlarini qisqartirish;

Jamiyat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan tushuntirish ishlarini amalga oshirish, profilaktik suhbatlar o'tkazish, ishonch telefonlari va aloqa kanallarida targ'ibot ishlarini amalga oshirish;

xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatlarga har kuni, o'zaro va to'liq rioya qilishlarini nazorat qilish.

Jamiyat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga zid bo'limgan boshqa chora-tadbirlarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo'yicha mazkur Uslubiyotning 16-bandida belgilangan choraldan kelib chiqib, qoldiq xavf-xatar darajasini baholash mazkur Uslubiyotning 2-ilovasidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi va "E-Anticor.uz" elektron platformasida bu qayd etiladi.

19. Jamiyat markaziy apparatining Ishchi guruhi tomonidan mazkur Uslubiyotning 3-ilovasiga muvofiq shaklda markaziy apparatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi loyihasi ishlab chiqiladi "E-Anticor.uz" elektron platformasiga yuklanadi.

20. Jamiyatning Ishchi guruhi tomonidan Jamiyat faoliyatidagi (vazifa va funksiyalaridagi) korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash natijalari asosida Jamiyatning umumlashtirilgan korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi ishlab chiqiladi va "E-anticor.uz" elektron platformasiga har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.05.2022-yildagi PQ-240-son qarorida belgilangan muddatga qadar kiritiladi.

21. Jamiyatning Ishchi guruhi tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasiga joylashtirgan ma'lumotlari natijasida avtomatik ravishda quyidagi xujatlar shakllantiriladi:

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha dasturi;

Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlari ro'yxati.

## **5-bob. Korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirish va yuritish tartibi.**

22. Agentlik tomonidan "E-anticor.uz" elektron platformasida joylashtirilgan Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xarita loyihalari asosida avtomatik ravishda korrupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri shakllantiriladi.

23. Korupsiyaga moyil bo'lgan munosabatlar elektron reestri loyihasi Agentlik

tomonidan jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish uchun o‘n besh kundan kam bo‘lмаган муддатга “E- anticor.uz” веб-сайтiga joylashtiriladi.

24. Agentlik jamoatchilik muhokamasi natijalari bo‘yicha umumlashtirilgan takliflarni muhokama yakunlangan kundan boshlab o‘n kun ichida “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali davlat tashkilotiga yuboradi.

25. Jamiatning Ishchi guruhi Agentlik va jamoatchilik tomonidan berilgan takliflar asosida Jamiatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturi loyihalarini takomillashtiradi.

26. Boshqaruv raisi har yili 1-martga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha dasturini elektron imzo orqali “E-anticor.uz” elektron platformasi orqali tasdiqlaydi.

#### **6-bob. Yakuniy qoidalar.**

27. Ushbu Uslubiyot O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi o‘zgargan taqdirda yoki Jamiatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzish jarayonini takomillashtirish zarurati tug‘ilganda qayta ko‘rib chiqilishi va o‘zgartirilishi lozim.

28. Mazkur Uslubiyot talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi.

*«O'zbek geologiya qidiruv» Jamiyat faoliyatida  
korrupsiayiviy xavf-xatarlarni aniqlash va  
baholash Uslubiyotiga  
1-Ilova*

# Jamiyat faoliyatining (vazifa va funksiyalarining) TAVSIFI

«O'zbek geologiya qidiruv» Jamiyat  
faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni  
aniqlash va baholash Uslubiyotiga  
2-Ilova

## Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasiga baho berish bo'yicha MEZONLAR

Korrupsiyaviy xavf-xatar darjası	Mezonlar
Yuqori*	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) avtomatlashtirilmagan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi)tartibga solinmagan Nazoratsiz tartibda ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiya) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda bir shaxs ishtirok etishi Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyani) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilgan (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlangan)
O'rta*	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman avtomatlashtirilgan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) qisman tartibga solingan Nazorat tartibida ish joyida jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud Jamiyat faoliyatini (vazifa va funksiyani) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda ikkita shaxs ishtirok etishi Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) bajarishda korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumot mavjud (jinoyat sodir etilganligi sud tomonidan tasdiqlanmagan)
Past†	Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq avtomatlashtirilgan Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) to'liq tartibga solingan jismoniy yoki yuridik shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish imkoniyati mavjud emas Jamiyat faoliyati (vazifa va funksiyasi) doirasida qarorni loyihasini tayyorlashda, ko'rib chiqishda va qabul qilishda uch va undan ortiq shaxs ishtirok etishi korrupsiyaviy xatti-harakat va korrupsiyaviy xatti-harakat sodir etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud emas

\* Ishchi guruh tomonidan AJ faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan xavf-xatarning "Yuqori" yoki "O'rta" darajada deb baholash Boshqaruv raisi bilan kelishgan holda amalga oshiriladi.

† AJ faoliyatida (vazifa va funksiyasida) aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashda, agarda "Past" darajadagi mezonlarning biri mavjud bo'lsa, o'sha korrupsiyaviy xavf-xatar darjasini past darajada deb baholanadi.

«O'zbek geologiya qidiruv» Jamiyat faoliyatida  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va  
baholash Uslubiyotiga  
3-Jlova

“TASDIQLAYMAN”  
“O'zbek geologiya qidiruv” AJ  
Boshqaruv raisi  
Sh. Alimov

“ ” 2024 yil

## «O'zbek geologiya qidiruv» Jamiyat foliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarning

### XARITASI

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarning gavfsi	Korrupsiyaviy xavf-xagarning darajasi (past, o'rita, yuqori)	Funksiyalarini (jarayonlarni) amalga oshirishga mas'ul bo'lgan lavozim	Funksiyalarini (jarayonlarni) targibga soluvchi mexanizm	Korrupsiyaviy xavf- xagarlarni bargaraf egish chorolari	Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xagar darajasi (pasg, o'rga, yuqori)	Mas'ul ijrochilar
1.	1. Tarkibiy bo'llinmaning nomi*						
1.	1. Bo'lim funksiyasi nomi						
1.	1. Funksiyaga oid munosabag nomi						
1.	1. Jarayon nomi						
1.	2. Jarayon nomi						
2.	2. Tarkibiy bo'llinmaning nomi*						
2.	1. Bo'lim funksiyasi nomi						
2.	1. Funksiyaga oid munosabag nomi						
2.	1. Jarayon nomi						
2.	2. Jarayon nomi						

«O'zbek geologiya qidiruv» Jamiyat faoliyatida  
korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash  
va baholash Ushubiyotiga  
4-Illova

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish  
**DASTURI**

T/r	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun mas'ullar
1.				
2.				